**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**

**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN’ATI INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti rektori**

**______________ A.Mansurov**

**202**4 **yil “**30**”** august

***Ro‘yxatga olindi: № BD 60211500-1.14***

# ANSAMBL SINFI

**(estrada cholg‘ulari)**

**O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** **200 000 - San’at va gumanitar fanlar**

**Ta’lim sohasi:** **210 000 - San’at**

**Ta’lim yo‘nalishi:** **60211500 - Cholg‘u ijrochiligi (estrada cholg‘ulari)**

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS-Kreditlar |
|---|---|---|---|
| AS1408 | 2024 – 2025 | 5-8 | 8 |
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>**2** |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Ansambl sinfi** | 120 | 120 | 240 |

**2.**

## I. Fanning mazmuni

Bakalavriat ta'lim bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - bakalavriat ta'lim yo'nalishining Estrada cholg'ulari, ixtisosligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur davlat ta'lim standartlariga binoan san'at sohasida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.

Mazkur fan Estrada cholg'u ijrochiligi yo'nalishida taxsil olayotgan 3 va 4 bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda jamoa bo'lib ijro etish, soz va metrni xis etish, yakkaxon ijrochi yoki guruh ijrochisi bo'lib ijro etish, jo'rnavoz elyustratorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu fanni o'qitishdan asosiy maqsad - talaba estrada ansambllari, yakkanavoz ijrochi, ansambl-orkestr cholg'ulari artisti, jahon va o'zbek estrada va djaz musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

«Ansambl (Ansambl sinfi)» fani bo'yicha o'qitish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi.Cholg'u musiqasini, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish.

Ansambl sinfi fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar -talabalar turli zamonaviy yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv cholg'usi ijrochiligiga oid barcha boyliklardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, yakka cholg'u ijrochiligiga, milliy ijrochilik uslubining qo'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, teatr va studiyalarda, turli ijodiy kollektivlarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur.

## II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**V semestr**

### 1-mavzu. Ansambl sinfi fanining dolzarbligi.

«Ansambl (Ansambl sinfi)» fani bo'yicha o'qituvchining birinchi darajali burchlaridan biri – o'qish va tarbiyani mushtarak holda fanning mazmunini aniqlab, malakali ijrochi-sozandani jamoaviy ijrochilikga moslashtirish. Amaliy mashg'ulotlarda jamoaviy ijrochilik san'atiga mehr bilan qarash, ansambl tarkibidagi boshqa cholg'uchilarni tinglashni bilish. Ijodiy faoliyatni to'g'ri tashkil etish.

### 2-mavzu. Notadan ijro mahorati.

Notadan ijro mahoratini o'stirish. Talabalarda mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro dasturini shakllantirishga yordam berish va o'zlashtirilgan - notalarni varoqdan ravon o'qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengayish. Jamoaviy ijrochilikka xos bo'lgan 2-3 ta mashqlar, 4-5 ta har xil xarakter uslubidagi asarlarni dastlab notadan ijro etish. Talabaning imkoniyati, musiqiy qobiliyati, musiqiy bilim doirasiga tayangan holda murakkab ijro dasturini belgilash.

### 3-mavzu. Harf tizimini o'zlashtirish.

Estrada yo'nalishida ijro qiladigan ijrochilar uchun harf tizimi ahamiyatini tushuntirish; improvizatsiya uchun harf tizimini qulayliklarini o'rganish; harf tizimining ijro yo'llarini o'rganish; harf tizimini amalda qo'llash.

### 4-mavzu. Ovoz imkoniyatlarini kengaytirish.

Ijrochi ijro paytida ovozning rang barangligini ko'rsata olishi; ovozning tembr jihatlarini o'rganish; tovushlarning dinamik xususiyatlarini o'rganish

### 5-mavzu. Ansambl tarkibi.

Ansambl va orkestrlar tarkibi bilan tanishish, cholg'u guruhlari va ovoz imkoniyatlarini o'rganish, transport qilinuvchi cholg'ularni aniqlash.

### 6-mavzu. Ansambl sinfida horijiy tajriba bilan tanishish.

Horij estradasi asarlarini tinglab taxlil qilish, dunyoga mashxur ijrochilar ijro uslubini o'rganish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash.

Ijro dasturini topshirish:

- Turli xarakterdagi zamonaviy kompozitor tomonidan yaratilgan 1 ta pyesa.
- O'zbek va jahon estradasidan 1 ta namuna.

**7-mavzu. Dinamik belgilar ustida ishlash.**

Ijro dasturidagi asarlarni dinamik belgilari ustida ishlash; dinamik belgilar orqali ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish; tovush tembri; tovush tebranish balandligini nazorat qilish.

**8-mavzu. Ijro uslublari.**

**Ijro uslublari.** Estada san'ati ijro uslublarining o'ziga xosligi; ijro uslublarini taxlil qilish; xar bir ijro uslubining temp, o'lchov, usul, shtrixlarini o'rganish.

**9-mavzu. Estrada ijrochilarida mustaqil improvizatsiya ijro etish qobiliyatini rivojlantirish.**

Har bir ijrochida mustaqil improvizatsiya qila olish qobiliyatini rivojlantirish; improvizatsiya orqali ritm, garmoniya, uslublarni xis etish va moslasish, improvizatsiya orqali ichki xis tuyg'ularni amalda ko'rsatish.

**10-mavzu. Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish.**

Ijrochi yakkanavoz sifatida o'zini ko'rsatishi; ansambl va orkestrlar bilan birga ijro eta olishi, yakka salist sifatida namoyon etishi, jamoada etakchilik qobiliyatini ko'rsata olishi.

**11-mavzu. Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.**

Mavzular; Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv. Estrada ijrochiligida zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishish, yo'nalishlarni taxlil qilish, zamonaviy guruhlarda Estrada cholg'ularining o'rni.

**12-mavzu.**

O'zbek kompozitorlarning ansambl uchun asarlarini o'rganish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jaz standartlaridan 1 ta asar.
2. O'zbek va jahon klassik durdonlaridan 1 ta namuna.

**VI semestr**

**1-mavzu. Interaktiv pedagogik texnologiyalar**

Interaktiv pedagogik texnologiyalar, uslublardan foydalanish mahorati Ijro texnikasini rivojlantirish ustida talaba bilan muntazam ravishda ish olib borish.

**2-mavzu. Asarlarni tinglab taxlil qilish**

Asarlarni tinglab taxlil qilish.

Turli xil yo'nalishdagi asarlarni taxlil qilib, xar bir yo'nalishni o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish va amalda qo'llash.

**3-mavzu. O'zbek va Jahon kompazitorlari ijodini o'rganish.**

O'zbek va Jahon kompazitorlari ijodini o'rganish. Ularning asarlaridagi o'ziga hosligini aniqlash. Uslub, metr, badiiy ijod, musiqiy ifoda vositalarini aniqlash.

**4-mavzu. Ansambl tarkibiga kiruvchi cholg'ularning ovoz imkoniyatlarini o'rganish.**

Ansambl tarkibiga kiruvchi xar bir musiqa cholg'usining ovoz imkoniyatlari, tembr, diapazon, applikatura, sozlanish uslubi.

**5-mavzu. Ansambl tarkibiga kiruvchi cholg'ularning ijro imkoniyatlarini o'rganish.**

Transport qilinuvchi va transport qilinmaydigan guruhlar, oiladosh cholg'ular, cholg'ularning yaratilish tarixi kabi ma'lumotlarni o'zlashtirish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash.

Ijro dasturini topshirish:

- Jaz standartlaridan 2 ta pyesa.

**6-mavzu. Milliy va jaz ansambllarining ijro uslublari.**

Milliy va jaz ansambllarining ijro dasturini shakllantirish. Ijro dasturidan o'rin olgan asarlarning mazmuni va o'ziga hos jihatlari, dinamika va ijro shtrixlari.

**7-mavzu. O‘zbek kompozitorlarning ansambl uchun asarlarini o‘rganish.**

O‘zbek kompazitorlari tomonidan ansambl uchun yozgan asarlarini o‘rganish. Xar bir asarda berilgan berilgan badiiy voqealik, ijro talqini va tahlili, ifoda vositalari, ijro shtrixlar kabi jihatlarni aniqlash.

**8-mavzu. Ansambl sinfida horijiy tajriba bilan tanisish.**

Horij ansambl ijrochilari ijro jarayoni va ijro dasturini tahlil qilib o‘rganish. Ijro uslublaridan amalda foydalanish.

**9-mavzu. Ansambl sinfida musiqiy tasvir ustuda ishlash.**

Ijro dasturidan o‘rin olgan xar bir asarning kompazitor tomonidan nazarda tutilgan voqea hodisani to‘liq xis etib, ijro ifoda vositalari orqali tinglovchiga yetkizib berish.

**10-mavzu. Konsert ijrochiligiga tayyorgarlik.**

Ansambl sinfida o‘rganilgan asarlardan konsert dasturi tayyorlash va uni tinglovchilarga yetkizib berish, talabalarda sahna ijrochiligi mahoratini oshirish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O‘tilgan mavzular bo‘yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jaz standartlaridan 1 ta asar.
2. O‘zbek va jahon klassik durdonlaridan 1 ta namuna.

**VII semestr**

**1-mavzu. Notadan ansambl ijro mahoratini o‘stirish.**

Ansamblda ijro etayotganda xar bir musiqachi notadan ravon ijrosini taminlash.

**2-mavzu. Mashg‘ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**3-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o‘rni.

**4-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**5-mavzu. Dunyoga mashxur ansambllar ijro dasturi bilan tanishish.**

Dunyoga mashxur ansambllar ijro dasturi bilan tanishish. Ijro dasturidagi asarlarni taxlil qilish. Xar bir asarni amalda ijro etib o'rganish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- O'zbek va jahon kompazitorlari tomonidan yaratilgan vertuoz asarlardan 2 ta namuna.

**6-mavzu. Zamonaviy kompozitorlar asarlarining badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash.

**7-mavzu. Harf sistemasida ijrochilik.**

Ijro dasturidagi asarlarga harf sistemasi orqali improvizatsiya ijro etish.

**8-mavzu. Estrada jaz uslublarini o'rganish.**

Estrada jaz uslublarini o'rganish, xar bir uslubning o'ziga hos jihatlarini o'zlashtirish.

**9-mavzu. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ansambllar ijro namunalarini o'rganish.**

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ansambllar ijro namunalarini o'rganish. Milliy cholg'ular va Estrada ansambllari ijro dasturi bilan tanishish.

**10-mavzu. Ijrochida jo'rnavoz-ilyustratorlik qobiliyatini shakllantirish.**

Ijrochida jo'rnavoz-ilyustratorlik qobiliyatini shakllantirish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jaz standartlaridan 2 ta asar. (ixtiyoriy bir asarga shaxsiy improvizatsiya ijro etish)
2. O'zbek va jahon klassik durdonlaridan 1 ta namuna.

**VIII semestr**

**1-mavzu. Sving, blyuz, ballada, rok, pop kabi uslublarda ijro etishni o'rganish.**

Estrada va jaz yo'nalishlarining o'ziga hos hususiyatlari, ijro uslublari, shtrixlarini o'rganish.

**2-mavzu. Ansambl ijrochiligiga xos o'zbek xalq musiqasi namunalarini tinglash.**

O'zbek xalq musiqasi namunalarini tinglash, xar bir asarning mazmun-mohiyatini o'zlashtirish, qayta ishlash, zamonaviy uslublarga moslashtirish.

**3-mavzu. Jamoada ishtirok etuvchi cholg'ularning badiiy va texnik imkoniyatlari.**

Jamoada ishtirok etuvchi cholg'ularning badiiy va texnik imkoniyatlarini bilgan holda to'g'ri ijodiy ish olib borish.

**4-mavzu. Ijrochida yakkanavoz solist qobiliyatini rivojlantirish.**

Har bir ijrochida yakkanavoz solist qobiliyatini rivojlantirish, badiiy jamolarda ijro etish, konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish.

**5-mavzu. duet, trio, kvartet va h.k. tarkibdagi ansambllarda mohirona ijro etish.**

Ijrochi solist yoki jo'rnavoz sifatida kichik guruhlarda ijro etilgan vaqtda jamoaning umumiy hususiyatlarini xis etishi, soz, metr, ijro ifoda vositalarini to'g'ri qo'llay olishi lozim.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- turli xarakterdagi 2 ta asar ijro etish.

**6-mavzu. Ansambl texnikasi.**

Katta va kichik ansambllarda ijro etgan vaqtda barcha ijrochilarning bir ovoz bo'lib ijro etishi, musiqiy asarning badiiy obrazini yoritib bera olishi, tinglovchiga sifatli musiqa yetkizib berishi talab etiladi.

**7-mavzu. Yirik shakldagi pyesalar ustida ishlash va badiiy obrazini yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, pedal, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**8-mavzu. Semestrda ijro etiladigan asarlarining badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, pedal, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**9-mavzu. Tanlangan polifonik asar ustida ishlash (qayta taxrir bo'lishi xam mumkin).**

Tembrlar, ijrochilikning tovushli sinxronligi, tovush orasidagi balans ustida ishlash.

**10-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**

Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Sahnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jaz standartlaridan 2 ta asar. (ixtiyoriy bir asarga shaxsiy improvizatsiya ijro etish)
2. O'zbek va jahon klassik durdonlaridan 1 ta namuna.
3. Konsert dasturida ijro etish.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Mavzu: Ansambllar tarixi;
2. Mavzu: Dunyoga mashxur ansambllar ijro dasturi bilan tanishish.
3. Mavzu: O'zbek va jahon kompazitorlari ijodini o'rganish.
4. Mavzu: Estrada jazz uslublarini o'rganish.
5. Mavzu: Estrada jazz uslublarini taxlil qilish.
6. Mavzu: Ozbekistonda faoliyat yuritayotgan ansambllar ijro namunalarini o'rganish.
7. Mavzu: Estrada orkestrlari tarkibi bilan tanishish
8. Mavzu: Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.
9. Mavzu : Harf sistemasida ijro etish (bukvennaya sistema)
10. Mavzu: Notadan o'qish malakalarini shakllantirish
11. Mavzu: Tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish.
12. Mavzu: Sving, blyuz, ballada, rok, pop kabi uslublarda ijro etishni o'rganish.
13. Mavzu Ansambl ijrochiligi xususiyatlari.

| | |
|---|---|
| | 14.Mavzu: ansambl ijrochiligiga xos o'zbek xalq musiqasi namunalarini tinglash.<br>15.Mavzu: Interaktiv uslublardan foydalanish<br>16.Mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish<br>17.Mavzu: Ijrochida jornavoz-ilyustratorlik qobiliyatini shakllantirish<br>18.Mavzu: Ansambl bo'lib ijro etish.<br>19.Mavzu: Jamoada ishtirok etuvchi cholg'ularning badiiy va texnik imkoniyatlarini bilgan holda to'g'ri ijodiy ish olib borish.<br>20.Mavzu: duet, trio, kvartet va h.k. tarkibdagi ansambllarda mohirona ijro etish. |
| **3.** | **V. Fan o'qitilishining natijalari /Shakllangan kompetensiyalari**<br>*Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:*<br>Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:<br>– ansambl ijrochiligi xususiyatlari va talablarini;<br>– ansambl ijrochiligiga xos o'zbek xalq musiqasi va boshqa xalqlar musiqasini ***bilishi kerak;***<br>– jamoada ishtirok etuvchi cholg'ularning badiiy va texnik imkoniyatlarini bilgan holda to'g'ri ijodiy ish olib borish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***<br>– ansambl ijrochiligi namunalarini tahlil qilish;<br>– ansambllar xususiyatlarini chuqur o'rganish;<br>– duet, trio, kvartet va h.k. tarkibdagi ansambllarda mog'irona ijro etish ***malakalariga ega bo'lishi*** **kerak.**<br>– ansambl artistlari va ularni katta sahnaga tayyorlash;<br>– kontsert-ijrochilik ko'nikmalari;<br>– zamonaviy yo'nalishlar haqida tushunchaga ega bo'lish.<br>– notadan o'qish texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirishni;<br>– turli xil janrdagi asarlami taxlil qilish;<br>– ijrochilik mahoratini takomillashtirish; |

| | |
|---|---|
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– interfaol keys-stadilar;<br>– treninglar;<br>– bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi;<br>– Ven diagrammasi metodi;<br>– individual ijro yo'llari;<br>– Ustoz-shogirt an'analari<br>– Klaster tizimi |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dasturni ijro etib ko'rsatish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Turli mualliflar. Turli cholg'ular uchun maxsus bastalangan asarlar, bastakorlar tomonidan moslashtirilgan asarlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar va shu kabi adabiyotlarga kiritilgan musiqiy asarlar notasi.<br>2. Sharofat Saidova "Estrada qo'shiqlari va vakal ansambllari"Toshkent 2010.<br>3. G'ani Xoliqov "Estrada orkestr va ansambllari uchun asarlar" Toshkent 2006. Turon-Iqbol.<br>4. Д.Ганиева Класс ансамбля Эстрадно-инструментальный ансамбль М.: Musiqa. 2020. 150 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. O.Piterson, Dj.Gershvin, Semler-Kolleri, P.Xindemit, Piterson, M. SHmits. Sovremennne djazovne proizvedeniya dlya raznix instrumentov. 1996-2006.<br>6. "Тансевалний ритми" випуск 5. Составител В.Судових. Москва 1980.<br>7. J.Ramo, M.Ravel, K.Debyussi, I.Stravinskiy. Razlichnme pesn dlya raznix instrumentov v soprovojdenii fortepiano. 1996-2006.<br>8. G. Benson- "Ijro asarlari to'plami"<br>9. V. Dmitriyevskiy- "Populyarniye djazoviy p'yesi"<br>10. Jaz standartlari to'plami. |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>1. http:www.youtube.com<br>2. www.kultura.uz<br>3. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami<br>4. http://millionsbooks.org<br>5. http://www.udemy.com<br>6. http://www.universarium.org<br>7. http://konservatoriya.uz<br>8. http:/antoshahaimovich.ru<br>9. partita.ru<br>10. V.saparov.com |
| **7.** | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil 30 avgustdagi 1- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan |
| **8.** | Fan/modul uchun mas'ullar: **Abdullayev O'.S.** O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi mudiri, dotsent.<br>**Muxammadiyev** S. O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi v.b. dotsenti.<br>**Olimov M.N.** O'zDK huzuridagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchisi. |
| **9.** | Taqrizchi: A.Ikramov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston estrada-simfonik orkestri bosh dirijori |